

**YEVROPA VA O'ZBEK TILLARIDA BOSHLANG'ICH SINTAKTIK
TUZILMALAR TAHLILI**

Egamberdiyeva Durdonaxon Ziyodbek qizi

Andijon davlat chet tillari instituti

Ingliz tili va adabiyoti fakulteti 1-bosqich talabasi

E.mail: egamberdiyevadurdona08@gmail.com

Annotatsiya: Sintaksis tilshunoslikning muhim bo'limlaridan biri sanalib, gap qurilishi, gapdagi bog'lanishlar, so'z birikmasi va uning turlarini, gap bo'laklarini o'rganadi. Ushbu maqolada sintaksisning ahamiyati, ingliz, nemis va o'zbek tillarida sintaksisning asosiy, boshlang'ich tuzilmalari qiyosiy tahlil qilinadi. Ular o'rtasidagi o'xshash jihatlar va farqlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Sintaksis, grammatik xususiyatlar, ega va kesim, bosh bo'laklar, ikkinchi darajali bo'laklar, teng va tobe bog'lanish, moslashuv, bitishuv, boshqaruv.

Abstract: Syntax is considered one of the important branches of linguistics. It studies sentence structure, the connections within a sentence, types of word combinations, and sentence elements. This article presents a comparative analysis of the fundamental and basic syntactic structures in English, German, and Uzbek. Similarities and differences among them are highlighted.

Keywords: Syntax, grammatical features, subject and predicate, main parts of the sentence, secondary parts of the sentence, coordination and subordination, agreement, adjacency, government.

Аннотация: Синтаксис считается одним из важных разделов лингвистики. Он изучает структуру предложения, связи в предложении, словосочетания и их виды, члены предложения. В данной статье проводится сравнительный анализ основных, начальных синтаксических структур в английском, немецком и узбекском языках. Освещаются их сходства и различия.



***Ключевые слова:** Синтаксис, грамматические особенности, подлежащее и сказуемое, главные члены предложения, второстепенные члены предложения, сочинение и подчинение, согласование, примыкание, управление.*

“Sintaksis” soʻzi - yunonchadan “tuzilish”, “tarkib” deb tarjima qilinib, ikki xil maʼnoda qoʻllanadi: 1) tining sintaktik qurilishi; 2) grammatikaning soʻz birikmalari hosil boʻlishini, ularning gapdagi ishtiroki, gaplarning tuzilishi va turlarini, sodda va qoʻshma gaplarning oʻzaro farqi va aloqalarini va gapda soʻzlarning birikishini yaʼni shu tilning sintaktik qurilishini oʻrganuvchi boʻlimi. Sintaksis grammatikaning muhim qismi hisoblanib, til va nutqning sintaktik strukturasi haqidagi fan deb ham qaraladi. Tilning asosiy vazifasi fikr almashishdir. Maʼlumki, insonlar soʻz va soʻz birikmalari bilangina emas, balki gaplar bilan fikr almashadilar. Shunday ekan, tilning asosiy kommunikativ birligi boʻlgan gap sintaksisning asosiy oʻrganilish obyekti sanaladi.¹ Garchi bu sohaning oʻrganilishi boy tarixga ega boʻlsa-da, hali hamon uning asosiy chegaralari va predmeti haqida bir toʻxtamga kelingani yoʻq. Sintaksis haqida tilshunoslarning fikrlari turlicha: baʼzilar sintaksisning predmeti faqat gap desa, boshqalari gap soʻzlar va soʻz birikmalaridan tuziladi, shunday ekan, uning predmetini soʻz birikmalari va soʻz ham tashkil etadi, deb fikr bildiradilar. Biroq soʻz birikmalari gapning asosiy elementlari hisoblanadi va gap haidagi taʼlimotga oʻz-oʻzidan birikadi, shuning uchun sintaksisning asosiy obyekti gap va gapning elementlar soʻz birikmasi va soʻz degan fikrga toʻxtalishimiz mumkin.

Sintaksis tilshunoslikning boshqa boʻlimlari (fonetika, leksikologiya, frazeologiyava ayniqsa, morfologiya) bilan chambarchas bogʻliq. Sintaksisning leksikologiya bilan bogʻliqligi shundaki, sintaksisda leksik birliklar yaʼni soʻzlar muhim ahamiyat kasb etib, ular gap qurilishining asosi hisoblanadi. Sintaksisni leksik birliklarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Masalan, “xat yozmoq” birikmasini tuzish uchun “xat” va “yozmoq” soʻzlarining maʼnosini tushunish kerak. Aks holda, birliklarda mantiqsizlik kelib chiqishi mumkin.

¹ Sodiqov A. et al. Tilshunoslikka kirish. – Uqituvchi, 1981.



Frazeologiya bilan bog‘liqligi esa ko‘proq gap bo‘laklariga ta’sir qiladi. Bunga misol sifatida “do‘ppisini osmonga otmoq” iborasini olishimiz mumkin. Bu mavzuda yangilar iboralarni ajratishda qiynalishadi va ko‘p hollarda , ularga bitta birlik sifatida emas, bir nechta so‘zlar yig‘indisi sifatida qarab tahlil qilishadi. Bu , albatta, xatoliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun sintaksisda frazeologik birliklarni bilish va ularga so‘z birikmasi emas, turg ‘un birlik sifatida qarash muhim hisoblanadi.

Sintaksis morfologiya bilan ham bog‘langan. Sintaksisda, xuddi morfologiyada bo‘lgani singari, so‘z muhim hisoblanadi, lekin u shakl yasalishi jihatidan emas, balki so‘z shakllarining so‘z birikmasi va gaplarni tuzishdagi ishtiroki jihatidan o‘rganiladi.² Masalan, “olma” so ‘zi morfologiyada qaysi turkumga xosligi, son shakllariga ko‘ra o‘rganilsa, sintaksisda uning gapda qaysi so‘z turkumlari bilan bog‘lana olishi va qanday gap bo‘lagi bo‘lib kelishiga ko‘ra o‘rganiladi.

So‘z turkumi	So‘z	O‘rganilishi
Sintaksis	<i>Olma</i>	Sifat bilan birikadi: yashil olma; Fe‘l bilan birikadi: olmani yema; Son bilan birikadi: beshta olma; Olmosh bilan birikadi : bu olma. Gapda ega , kesim, to‘ldiruvchi bo‘lib keladi.
Morfologiya	<i>Olma</i>	Ot turkumida Birlik sonda

² O‘zbek tili grammatikasi, 2j., T., 1975; Mahmudov N., Nurmonov A., O‘zbek tilining nazariy fannatikasi. Sintaksis, T., 2005.



Ingliz tilidagi soʻzlar bilan ham bu qatorni davom ettirishimiz mumkin. Xususan, “live” soʻzi. Avvalo, uning leksik maʼnosini aniqlab olish kerak. “Live” feʼl boʻlganda “yashamoq” yoki sifat boʻlganda “jonli” maʼnolarini beradi. Hozir biz soʻzning faqatgina feʼl boʻlib kelgan holatidagi maʼnosini olsak, uning sintaksisdagi oʻrganilishi kesim sifatida kelishi boʻladi. *I live in Andijan*. U feʼl sifatida gapda boshqa soʻzlar bilan birikadi.

Soʻzlar , gaplar va undan katta birliklar bir-biri bilan bir necha usullarda bogʻlanishi mumkin.

Sintaktik bogʻlanishlar asosan teng va tobe bogʻlanishlarga boʻlinadi. Teng bogʻlanish(coordinative)da ikki tomon ham teng munosabatga kirishadi va asosan, teng bogʻlovchilar va intonatsiya orqali bogʻlanadi. Masalan,

- oʻzbek tilida: ota **va** ona, aka **bilan** uka , daftar **hamda** kitob; dars tugadi **va** oʻquvchilar uylariga ketishdi.

- ingliz tilida : brother **or** sister, boys **and** girls , teacher **and** student; She tried hard, **but** she failed.

- nemis tilida: Bruder **und** Schwester, Vater **und** Mutter, Kafee **oder** Tee; Ich esse Brot **und** trinke Tee.

Tobe bogʻlanish(subordinative)da esa hokim tobe munosabati aks etadi. Bunda maʼnosi aniqlashrib kelinayotgan boʻlak hokim, hokim boʻlakning maʼnosini toʻldirib ,aniqlashtirib kelayotgan boʻlak tobe hisoblanadi. Oʻzbek tilida ularni farqlashning oson usuli bor: birinchi kelayotgan boʻlak tobe, keyingi kelayotgan boʻlak hokim hisoblanadi. Bu usul faqat oʻzbek soʻz birikmalari uchun foyda beradi, boshqa tillarda bunday aniqlash doim ham toʻgʻri boʻlmaydi. Misollar:

- oʻzbek tilida: *ozod vatan, maktabga bordim; darslarimni tayyorlab boʻldim, **shuning uchun** onamga yordamlashdim;*

- ingliz tilida : *We could not go anywhere **because of** the rain.*

- nemis tilida: *Ich bleibe zu Hause, **weil** ich bin krank .*

Baʼzi tillarda sintaktik munosabatning teng va tobe munosabatdan boshqa turlari ham mavjud. Bular moslashuv, bitishuv va boshqaruv usullaridir.



Moslashuvda qaratqich va qaralmish munosabati aks etadi: mening kitobim, ukamning maktabi kabi. Bu holatni hind-yevropa tillari oilasida ham ko‘rishimiz mumkin. *Ingliz tilida: my book, her apple, our room; Nemis tilida : meine Mutter, deine Freundin.*

Boshqaruvda tobe bo ‘lak hokim bo ‘lak talab qilgan shaklda bo‘ladi: *maktabga bordim, kitobni o‘qidim, onam uchun oldim.* Bu usulda asosan kelishik va ko‘makchilar ishtirok etadi.

Bitishuvda so ‘zlar ohang yordamida birikadilar. *Masalan, go ‘zal o ‘lka, ozod vatan, yaxshi o ‘quvchi.* *Ingliz tilida: a beautiful coast, smart person. Nemis tilida : das schon Haus, die alt Bucher.*

Tillarning qiyosiy tahlili yana bir qancha guruhlarda davom etishi mumkin. Bilamizki, har bir tilling o‘ziga xos sintaktik xususiyatlari mavjud. bu sintaktik xususiyatlarning kesishgan nuqtalarini ularni qiyoslash va taqqoslash orqali aniqlaymiz. Aynan bugungi tahlildan ko‘rdikki, o‘zbek va yevropa tillarining ham o‘xshash va farqli tomonlari mavjud. Ushbu farqlarni va o‘xshashliklarni anglash til o‘rganishda sintaktik bilimlarni chuqurlashtirish va tarjima jarayonida xatolarga yo‘l qo‘ymaslik uchun zarurdir. Maqolada keltirilgan nazariy hamda amaliy misollar orqali o‘quvchi tillar sintaksisini mukammal tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Akramova A. TILSHUNOSLIKDA SINTAKTIK BIRLIKALAR VA ULARNING DERIVATSIYASI //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2025. – Т. 4. – №. 10. – С. 116-117.
2. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. – 1996.
3. Buranov J. Ingliz va O‘zbek tillari qiyosiy grammatikasi. Toshkent, 2013
4. Bushuy T., Safarov Sh. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi. Toshkent, 2017.
5. Erkaboyeva N. Q. O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami. – Akademnashr, 2012.



6. Kaxarovna X. M. et al. INGLIZ VA RUS TILLARI TUZILMASINING QIYOSIY TAHLILI: SINTAKSIS VA SO 'Z TARTIBIGA E'TIBOR //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2025. – Т. 44. – №. 5. – С. 492-498.
7. Nilufar, U. (2025). INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SODDA GAP SINTAKSISI
8. O'zbek tili grammatikasi, 2j., T., 1975; Mahmudov N., Nurmonov A., O'zbek tilining nazariy fammatikasi. Sintaksis, T., 2005.
9. SAYFULLAYEVA R. Y., ABUZALOVA D. M. M., NS Y. D. N. TILSHUNOSLIKKA KIRISH. – GlobeEdit, 2020.
10. Sodiqov A. et al. Tilshunoslikka kirish. – Ūqituvchi, 1981